

FUTBOL SPORT TURINING PAYDO BO'LISHI HAMDA O'ZBEKISTONDA FUTBOLNI RIVOJLANTIRISH

*Tolibjonov Sardorbek Ravshan o'g'li
Farg'on'a viloyati Qo'qon shahri
Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Futbol sport turinig paydo bo'lishi, rivojlanishi, qonun-qoidalari, futbolchilarni rasmiy o'yinlarga tayyorlash hamda futbol sport turining O'zbekistonda rivojlanirish uchun olib borilayotgan islohotlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Futbol, hujumchi, himoyachi, darvozalar, darvozabon, futbolchi, gol, jamoa.

Аннотация: В данной статье представлена информация о возникновении, развитии, законодательстве и регулировании футбольного спорта, подготовке футболистов к официальным матчам, а также реформах, проводимых для развития футбольного спорта в Узбекистане.

Ключевые слова: Футбол, нападающий, защитник, ворота, вратарь, футболист, ворота, команда.

Annotation: This article provides information about the emergence, development, laws and regulations of the football sport, the preparation of football players for official matches, and the reforms being carried out for the development of the football sport in Uzbekistan.

Keywords: Football, striker, defender, gates, goalkeeper, footballer, goal, team.

Introduction:

Zamonaviy futbolga o'xshash birinchi to'p o'yinlaridan biri italyan kalchosi edi. 14-asrdayoq ommalashgan ushbu sport turini yaqinroq tasavvur qilish uchun qoidalarni ko'rib chiqsak: o'yin 50 daqiqa davom etadi va uzunligi taxminan 80 metr, eni 40 metr bo'lgan qumli maydonda o'tkaziladi. Oq chiziq bilan maydon teng yarmiga ajratiladi. Panjara bilan o'ralgan keng maydonning belgilangan hududlari esa darvozalar etib belgilanadi. Bellashuv davomida to'pni tananing har qanday qismi bilan harakatlantirishga ruxsat beriladi, lekin ko'pincha bu qo'llar bilan amalga oshiriladi. To'pni darvoza to'riga aniq yo'llash muhim. Bu amalga oshmasa, raqiblarga yarim ochko beriladi. Goldan keyin raqiblar darvozalarni o'zgartiradilar. Har bir jamoada 27 nafardan futbolchi bo'ladi, jarohatlangan yoki chetlatilgan futbolchilarning o'rniga maydonga boshqa o'yinchilar tushmaydi. Har bir jamoa tarkibi 15 nafar hujumchi, 5 nafar yarim himoyachi, 3 nafar himoyachi va 4 nafar darvozabondan iborat bo'ladi. Raqibga qaraganda ko'proq gol urgan jamoa g'alaba qozonadi. Mazkur bahs qo'poliklar ko'pligi bilan boshqa o'yinlardan ajralib turadi. Boisi, barcha o'yinchilar o'zaro bir-birlari bilan urishib, raqib himoyasini bo'shashtirishga harakat qilishadi. Bellashuv davomida ikki raqib futbolchisi o'zaro yakkama-yakka urishishga tayyorligini bildirsa, bunga ruxsat berilgan. Biroq o'yinni biroz yumshatadigan qoidalari ham yo'q emasdi. Masalan, yiqilgan futbolchini urish qat'ian man etilgandi. Bellashuvda qoidalarga amal qilinishini maydondagi 6 nafar va uning tashqarisidagi bosh hakam nazorat qilishgan. Qiziquvchan inglizlar 14-asr-dayoq o'z vatanlariga to'p o'yi-nining yangi turini olib kelishdi. Qoidalari

kalchonikidan deyarli farq qilmasdi, ya'ni o'yin qoidalarga mos ravishda o'tardi, deb bo'lmasdi. Natijada uchrashuvlar davomida o'yinchilar hattoki, o'limgacha olib boradigan darajada og'ir jarohatlar olishardi. Shunday bo'lsada, inglizlarga o'yin shu qadar yoqib qoldiki, monarxlar uni taqiqlashga majbur bo'lishdi. Misol uchun, 1365 yilda Edvard III askarlar kamondan o'q otish bilan shug'ullanish o'rniga futbol o'ynashgani uchun ushbu sport turini taqiqlashga majbur bo'lgan. Ammo 17-asrda Angliyada nihoyat, mazkur sport turi uchun qoidalalar yaratishga qaror qilishdi (ammo hali uni futbol deb atab bo'lmasdi). Kiritilgan yangi qoidalarga ko'ra, beldan pastga urish va oyoqdan chalib yiqitish taqiqlangan. Ommaviy futbol Angliyada 19-asr boshlarida paydo bo'ldi. Jamoalar tarkibidan bir xil miqdordagi o'yinchilar joy olishdi (har bir jamoada 11 nafardan 14 nafargacha va undan ko'proq o'yinchilar), ular 70-90 metr uzunlikdagi maydonda o'ynashdi, darvozalar paydo bo'ldi. Futbol kollej talabalaridan tuzilgan jamoalar o'rtasida o'ynala boshlandi, lekin har bir kollej o'z qoidalari ega edi. Masalan, ayrim kollejlarda ushbu sport turini qo'l bilan o'ynashga ruxsat berilgan bo'lsa, boshqalarida bu taqiqlangandi. Dastlabki futbol qoidalari to'plami 1846 yilda Ragbi maktabida ishlab chiqilgan bo'lsa, ikki yildan so'ng, Kembrijda unga qo'shimcha va tuzatishlar kiritildi. Ushbu qoidalarga ko'ra, futbol o'yini faqatgina oyoq bilan o'ynaladigan bo'ldi. Ke-yinchalik Kembrij qoidalari kichik o'zgarishlar bilan Angliya futbol assosiasiyasi (AFA) qoidalari uchun asos qilib olindi. 1857 yilda dunyoda birinchi futbol klubi - «Sheffild» paydo bo'ldi. Uning ortidan esa boshqa jamoalarga ham asos solindi. Shunday qilib, 1863 yilda 11ta ingliz klubni va maktab jamoalari vakillari Angliya futbol assosiasiyasini tuzdilar. AFA asta-sekin o'yin qoidalarini shakllantirib bordi. 19-asrning oxirigacha futbolchilar maoshsiz o'ynashgan va bu o'sha davr uchun odatiy hol edi. Bundan tashqari, AFA futbolchilarga pul to'lashni taqiqlab qo'ygan, qoidabuzarlar musobaqadan, klub esa assosiasiyadan chetlashtirilardi. Ammo ushbu qat'iy taqiqlarga qaramay, ko'plab klublar futbolchilariga pul berishda davom etishdi. Natijada, 1885 yilda AFA jamoalar bosimi ostida futbolchilarga maosh to'lashga ruxsat berdi. Shu tariqa, millionlar o'yini biz hozir ko'nikkan futbolga imkon qadar o'xshash bo'ldi. Qit'alar o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishi tufayli futbol Angliyadan dunyoning barcha mamlakatlariga yetib bordi. Yevropa futboli rivojiga Avstriya terma jamoasiga jami 20 yil ustozlik qilgan avstriyalik Ugo Maysl katta hissa qo'shdi. 1930 yillarda ushbu murabbiy qo'l ostida Avstriya terma jamoasi Yevropaning kuchli termalari, ya'ni Belgiya (6:1), Fransiya (4:0), Germaniya (6:0) hamda Shveysariya (8:1) jamoalarini mag'lubiyatga uchratdi. Umuman olganda, avstriyaliklar o'sha payt 31ta o'yinda 101ta gol urib, boryo'g'i 3 marta mag'lubiyatga uchrashgandi. Ugo Maysl 1927 yilda Yevropaning dastlabki yirik klub turnirlaridan biri - Mitropa kubogini yaratishni taklif qildi.

Materials and Methods:

Mazkur musobaqaning ilk o'yinlari o'sha yili bo'lib o'tgan, unda markaziy Yevropaning eng yaxshi klublari ishtirot etgandi. Futbolning shuhratি oshgani sayin, uni nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi xalqaro tashkilotga ehtiyoj paydo bo'ldi. Natijada 1904 yilda FIFA (Xalqaro futbol federasiyasi)ga asos solindi. 1908 yilgi London Olimpiadasi FIFA shafe'ligidagi birinchi xalqaro rasmiy turnir sifatida tan olingan. Futbol bo'yicha ilk jahon championati esa 1930 yilda o'tkazildi. Unda o'sha paytda dunyoning eng kuchli jamoasi hisoblangan Urugvay termasi oltin medalni qo'lga kiritdi. Keyinchalik millionlar o'yini juda tez sur'atlarda rivojiana boshladi. Futbol olamida Pele, Lev Yashin,

Diyego Maradona kabi millionlab muxlislar kumiriga aylangan futbolchilar yetishib chiqishdi. Ko‘plab futbol klublari boshqalardan ajralib, grand jamoa nomini oldi.

O‘zbekiston futbolsevar mamlakat hisoblanadi. 7 dan 70 gacha futboldagi voqealarni qiziqish bilan kuzatib boradi, tahlil qiladi, g‘alabalarga sevinadi, mag‘lubiyatlardan ranjiydi. Shu sababli muxislarning futbolimizga qo‘yadigan talablari doimo yuqori bo‘lgan. Terma jamoalarimizdan va klublarimizdan xalqaro maydonda katta g‘alabalar kutishadi. Albatta jahon championati orzusiga hozircha erishganimiz yo‘q. Lekin, bir narsani ishonch bilan aytish mumkin, agar Mundialga tizimli rivojlanish yo‘li bilan va mustahkam poydevor qurgan holda chiqsak, bu muvaffaqiyat bir martalik emas, muntazam darajaga chiqadi. O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasining bugungi faoliyatida ham aynan tizimdagi islohotlarni amalga oshirish harakatlarini ko‘rishimiz mumkin. Har qanday o‘sish va rivojlanish birinchi navbatda huquqiy asosga ega bo‘lishi kerak. 2019-yil 4-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan «O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish choratadbirlari» to‘g‘risidagi farmoni o‘zbek futboli istiqboli sari muhim qadam bo‘ldi. O‘tgan davr mobaynida farmonda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ko‘plab ishlar amalga oshirildi. [5] Futbolni rivojlantirishda eng avvalo bolalar futboli, ommaviy futbol, seleksiya, iqtidorlarni aniqlash va ularni qo‘llab-quvvatlash masalalariga jiddiy e’tibor qaratildi. Hususan, maktablararo liga tashkil etilib, musobaqalar muntazam ko‘rinishga keltirildi. Futbol maktablari o‘rtasidagi Respublika miqiyosidagi musobaqalar qamrovi oshdi. Minglab bolalar o‘z orzulariga erishib, professional futbolga ilk qadamlar tashladi. Infratuzilmani yaxshilash, akademiyalar faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha aniq va keng qamrovli ishlar qilindi. OFK va FIFA bilan hamkorlikda xududlarda yangi futbol maydonlari qurib bitqazildi va mayjudlari xalqaro standartlarga mos ravishda ta’mirdan chiqarildi. Futbolimiz tarixida ilk bor terma jamoalar uchun zamonaviy markaz barpo etish rejasи tasdiqlandi va qurilish ishlari boshlab yuborildi. O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi rahbariyati tomonidan futbolimizni ortga tortayotgan kelishilgan o‘yinlar, noplak hakamlik, totalizator, yosh kichraytirish kabi illatlarni yo‘q qilish yo‘lida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Futboldagi faoliyatida faqatgina moddiy manfaatni ustun qo‘yadigan, bunga erishishda har qanday nomaqbul yo‘ldan qaytmaydiganlarga nisbatan qat’iy choralar ko‘rildi. [4] Jumladan, 2019-yilning aprel oyidan hozirga qadar O‘FA maxsus Inspeksiyasi tomonidan kelishilgan o‘yinlar hamda hakamlar bilan bog‘liq holatlar bo‘yicha 25 nafar hakam va inspektorlar, futbol klublarining turli lavozimlarida faoliyat yurituvchi 19 vakili, 8 nafar murabbiy hamda 62 futbolchi bilan surishtiruv ishlari olib borildi.

Results and Discussions:

Unga ko‘ra, O‘FA Etika qo‘mitasining qarori bilan 7 nafar hakam (2 FIFA referisi) futbol faoliyatidan chetlatildi. 15 nafar yordamchi hakamlar, 3 inspektor turli miqdordagi jarimalarga tortildi. Klublarning 11 vakili, 4 murabbiy, 27 futbolchiga intizomiy jazo choralar qo‘llanildi. Quyi liganing 4 ta klubi kelishilgan o‘yinlar va totalizatorda qatnashgani isbotlangach, musobaqadan chetlatildi. Ayollar futbolida ham bunday holatlarga qarshi kurash keng ko‘lamda davom ettirilmoqda. Halol o‘yin tushunchasi yangi bosqichga chiqdi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda shubhali o‘yinlar soni kamayganini OFK ham o‘z hisobotlarida qayd etgani e’tiborga loyiq. Aholining o‘z sevimli sport turi bilan muntazam shug‘ullanishi uchun ommaviy futbol turnirlari tashkil etildi. Hususan «DXX Kubogi» musobaqlari butun mamlakatimizning 300 mingga yaqin

yoshlarini qamrab oldi va haqiqiy futbol bayramiga aylanib ketdi. Bolalar-o'smirlar, ommaviy futbol va infratuzilma bilan bir qatorda, professional jamoalarimizning faoliyati ham tubdan o'zgardi. O'FA tasarrufidagi terma jamoalarimiz soni 10 tadan 19 taga yetdi. Ularning barchasi musobaqalarga to'laqonli yig'inlar orqali tayyorlanib, kuchli sparing sheriklar bilan muntazam o'rtoqlik o'yinlari o'tkazib kelishmoqda. O'tgan yilning o'zida o'quv-mashg'ulot yig'inlari soni 81 tani tashkil etdi. Jamoalarimiz 185 marta turli darajadagi uchrashuvlarda qatnashdi. Tajriba almashish maqsadida bir qancha xorijlik taniqli mutaxassislar terma jamoalarimizda hamda O'FA bo'linmalarida faoliyat olib borishni boshlashdi. Terma jamoalarga futbolchi yetishtirish mexanizmi bosqichma-bosqich yo'lga qo'yildi. Futbolchilarни seleksiya qilish ishlari professional darajaga olib chiqildi va to'liqligicha murabbiylar shtabi tomonidan, sport prinsiplariga mos ravishda amalga oshirilyapti.[3] O'FA rahbariyati tomonidan milliy terma jamoamiz va boshqa termalarga kuchli raqiblar topish vazifasi belgilandi, shu kunga qadar Osiyo, Yevropa, Afrika, Janubiy va Shimoliy Amerika mamlakatlarining ko'zga ko'ringan jamoalari O'zbekiston terma jamoalariga raqiblik qilishmoqda. So'nggi uch yil davomida O'zbekiston xalqaro musobaqalar o'tkazish bo'yicha Osiyo markazlaridan biriga aylandi, deb bemalol aytishimiz mumkin. Qit'amizning turli yosh toifalaridagi rasmiy musobaqalari, Osiyo championatlari, saralash o'yinlari va Markaziy Osiyo mintaqasining o'nlab turnirlariga mezbonlik qilindi. Ayniqsa, pandemiya va undan keyingi murakkab davrda O'zbekiston har qanday darajadagi sport tadbirlarini yuqori saviyada o'tkazdi. OFK tomonidan O'FAga bildirilayotgan ishonch tobora ortib bormoqda. Xalqaro musobaqalar mezbonligi orqali mamlakatimiz futbol infratuzilmasini yaxshilash, mutaxassislar malakasini oshirish, muxlislarga unutilmas futbol bayramini taqdim etishda katta natijalarga erishildi. Ayniqsa U23 Osiyo kubogi hamda U20 Osiyo kubogi musobaqalari yurtimiz sportida katta voqeaga aylandi. Bu orqali O'FAning nufuzli xalqaro tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlari yangi bosqichga chiqdi. FIFA, OFK va UYFA bilan qator yangi loyihalar muntazam ravishda amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi.[2] Sir emas, har qanday natija ortida mutaxassislarning professional faoliyati yotadi. O'FA futbol tizimidagilarning aynan professional darajada ish olib borishi uchun barcha sharoitlarni yaratmoqda. Futbolning barcha yo'nalishlarini qamrab olgan «Futbol mutaxassislarini tayyorlash markazi» tashkil etilishi bu yo'ldagi muhim qadam bo'ldi. Qolaversa, avvallari katta e'tibor qaratilmagan sport meditsinasini kabi yo'nalishlar yangi bosqichga olib chiqildi. O'FA qoshida sport tibbiyoti qo'mitasi tashkil etilib, futbolimizdagи eng og'riqli nuqtalardan biri bo'lmish vitaminizatsiya, sog'lom ovqatlanish, zamonaviy tibbiy ko'rikka ega bo'lish kabi masalalarga ilmiy yondoshgan holda, tizim ishlab chiqishni yo'lga qo'ydi. Sportchilarning jismoniy holatini nazorat qiluvchi zamonaviy texnologiyalar xarid qilinib, barcha terma jamoalarga biriktirildi. Bugungi kunda ayollar futbolida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Turli yosh toifalarida terma jamoalar tashkil etilib, ular mintaqaviy turnirlarda ijobiy natijalar qayd etishyapti. O'FA qoshida ayollar futboli bo'limi va qo'mitasi tashkil etildi. Mutaxassislar futboli rivojlangan mamlakatlarda o'z tajribalarini oshirib qaytishmoqda. Mahalliy turnirlarni yuqori saviyada o'tkazishga O'FA rahbariyati alohida e'tibor qaratayapti. Superligamizning oxirgi mavsumi tarixdagi eng qiziqarli championatlardan biri bo'ldi va unda turli o'rinalar uchun kurash eng so'nggi turga qadar davom etdi. O'zbek klublari OFK litsenziyalarini olishda ham faollik ko'rsatib kelishmoqda. Nafaqat Superliga, balki Pro liga bahslari ham telekanallar orqali jonli efirda

namoyish etildi. Championatlarga yirik kompaniyalar xomiylik asosda jalb etildi. O‘zbekiston birinchilardan bo‘lib VAR tizimini ishga tushirdi va hozirgi kunda ham milliy championat o‘yinlarida muntazam qo‘llamoqda. Tizimli o‘zgarishlar va yangi davrga qadamlar tashlanishi futbolimiz rivoji, kelajakdagi yutuqlar poydevori sifatida amalga oshirilayapti. Shu bilan birga, hozirning o‘zida jamoalarimiz ijobjiy natijalar ko‘rsatishmoqda. [1] Hususan, Temur Kapadze boshqaruvidagi Olimpiya termo jamoasining Osiyo kubogidagi yorqin o‘yinlari muxlislarni stadionlarga qaytardi deyish mumkin. Final uchrashuviga qadar 23 yoshli jamoamiz barcha raqiblarini ishonch bilan mag‘lubiyatga uchratib keldi va faqatgina hal qiluvchi uchrashuvda imkoniyatni boy berdi. Shunday bo‘lsada, ushbu turnirdagi ishtirok ijobjiy baholandi. Shu yilning mart oyida mamlakatimiz yana bir yirik turnir, 20 yoshgacha bo‘lgan futbolchilar o‘rtasidagi Osiyo kubogiga mezbon bo‘ldi. Ushbu turnirning o‘ziga hos tomoni, Jahon championati yo‘llanmasini taqdim etishi edi. Yuqori saviyada o‘tgan championatning eng quvonarli tomoni, unda bizning yoshlar birinchi o‘ringa sazovor bo‘lishdi! Final uchrashuvida termo jamoamizni qo‘llab-quvvatlash uchun O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashrif buyurishi o‘zbek futboli tarixidan joy oldi. Yosh futbolchilarimizda mana shunday xalqaro o‘yinlar orqali o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortib bormoqda. Yaqin kelajakda Olimpiya o‘yinlari va Jahon championati yo‘llanmasi uchun kurashadigan futbolchilarimiz har qaysi raqib bilan munosib kurash olib bora olishiga muxlislar ham ishonch hosil qilishdi.

Conclusion:

Albatta, futbolimizni yangi bosqichga olib chiqishda hali amalga oshiriladigan ishlar juda ko‘p. Butun dunyoda bo‘lgani kabi, yurtimizda ham OAV vakillari hamda futbol ommasi kechayotgan jarayonlarni sinchikovlik va talabchanlik bilan kuzatib boradi. Bu borada O‘FA shaffof tashkilot sifatida faoliyat olib boryapti. Eng muhim, Prezident futbolga davlat darajasida e’tibor qaratib, ishonch bildirdi va futbolimizning har jabhasini qamrab olgan yangi Qarorni imzoladi. Ushbu muhim hujjat futbolimiz rivoji uchun katta turtki bo‘lishi va kelajakdagi yangi g‘alabalarga poydevor bo‘lishiga ishonamiz.

Reference:

1. www.ziyonet.uz[1]
2. Maxkamjonov K.M., Xo‘jayev F., Darstik. Jismoniy tarbiya - 1, "O‘zbekiston", 2003-yil.[2]
3. Maxkamjonov K.M., Xo‘jayev F., Darslik. Jismoniy tarbiya - 2, "O‘zbekiston", 2003-yil[3]
4. Maxkamjonov K.M., Xo‘jayev F., Darslik. Jismoniy tarbiya - 3, "O‘zbekiston", 2003-yil[4]
5. Maxkamjonov K.M., Xo‘jayev F., Darslik. Jismoniy tarbiya - 4, "O‘qituvchi" nashr, 2003-yil.[5]
6. Usmonxo‘jayev T.S. va boshqalar. Darslik. Jismoniy tarbiya - 5-6, "O‘qituvchi" nashr, 2003-yil.[6]